


IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK



2023- yilning yanvar-martida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi




Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Dastlabki ma'lumotlar

- 2023- yilning yanvar-martida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi 63,8 % ni tashkil etdi.
- Kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga 8,2 birlikni tashkil qildi.
- 2023- yilning yanvar-martida 1066 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 53,2 foizga kam.



2023- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi. % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 449 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 83 ta, sanoatda 240 ta, qurilishda 68 ta, yashash va ovqatlanishda 38 ta, tashish va saqlashda 50 ta tashkil etilgan.

Yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2022- y.	2023- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	41 897	36 456	-5 441
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	1 571	678	-893
<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushlari:</i>				
YAHM	%	59,0	63,8	4,8
Sanoat	%	21,0	33,3	12,4
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	98,2	97,5	-0,8
Investitsiya	%	51,3	72,2	21,0
Qurilish	%	98,2	98,4	0,3
Chakana savdo	%	92,8	92,2	-0,6
Xizmatlar	%	66,1	65,2	-0,9
Yuk tashish	%	92,2	95,0	2,8
Yuk aylanmasi	%	58,8	66,1	7,3
Yo'lovchi tashish	%	97,2	95,2	-2,0
Yo'lovchi aylanmasi	%	89,8	93,5	3,7
Eksport	%	37,8	35,6	-2,3
Import	%	9,8	10,3	0,6



2023- yilning yanvar-martida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da

**YAHM
63,8%**

**Savdo
92,2%**

**Sanoat
33,3%**

**Qurilish
98,4%**

**Investitsiya
72,2%**

**Eksport
35,6%**

**Xizmatlar
65,2%**


**Import
10,3%**

**Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	(+;-)
Andijon viloyati	2 004	1 066	-938
<i>shaharlar:</i>			
Andijon sh.	306	239	-67
Xonobod sh.	25	7	-18
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	104	76	-28
Andijon	176	133	-43
Baliqchi	143	56	-87
Bo'ston	55	41	-14
Buloqboshi	43	37	-6
Jalaquduq	114	34	-80
Izboskan	150	60	-90
Ulug'nor	35	37	2
Qo'rg'ontepa	139	52	-87
Asaka	162	93	-69
Marhamat	102	50	-52
Shahrixon	183	59	-124
Paxtaobod	138	42	-96
Xo'jaobod	129	50	-79



2023- yil yanvar-martda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da



2023- yilning yanvar-mart oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Andijon shahri – 22,4 % Asaka tumani 8,7%, Andijon tumani – 12,5 %, Izboskan tumani – 5,6 %, Shahrixon tumani – 5,5 %, Baliqchi tumani – 5,3 % va Paxtaobod tumani –3,9 % ga tegishli.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	farqi (+;-)
Jami	2 004	1 066	-938
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	923	83	-840
Sanoat	266	240	-26
Qurilish	85	68	-17
Savdo	494	449	-45
Tashish va saqlash	42	38	-6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	44	38	-6
Axborot va aloqa	29	27	-2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	40	26	-14
Boshqa faoliyat turlari	81	85	4

Ma'lumot uchun: 2023- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi (+;-)
Andijon sh.	306	239	-67
Andijon t	176	133	-43
Asaka	162	93	-69
Oltinko'l	104	76	-28
Izboskan	150	60	-90
Shahrixon	183	59	-124
Baliqchi	143	56	-87
Qo'rg'ontepa	139	52	-87

2023- yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahrida -239 tani tashkil etdi.



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda






2023- yil yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 8,2 birlikni tashkil etdi.



Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga ko'ra*




2023- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida 15,4 birlik, Xonobod shahrida 11,7 birlik, Xo'jaobod tumanida 10,9 birlik, Ulug'nor tumanida 9,6 birlik, Bo'ston tumanida 9,1 birlik, Baliqchi tumanida 8,3 birlikni tashkil etgan. Qo'rg'ontepa tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 5,3 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2023- yilning yanvar-martida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)*




2023- yil yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan viloyat bo'yicha 8,2 birlikni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich shahar va tumanlar kesimida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanganda pasayish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shaharda 9,2 birlikka, Xonobod shahrida 5,5 birlikka, Asaka tumanida 3,3 birlikka kamaygan . Baliqchi tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 1,0 birlikka pasaygan.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda).*



2023- yilning yanvar-martida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan kichik biznes subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda*



Faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)

Eng yuqori ko'rsatkich

- Andijon shahri
- 15,4 birlik


O'rtacha ko'rsatkich

- Oltinko'l tumani
- 8,0 birlik

Eng past ko'rsatkich

- Qo'rg'ontepa tumani
- 5,3 birlik

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, (yanvar-mart holatiga ko'ra, % da)

2023- yilning yanvar-martida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi 63,8 % ni tashkil qildi. (2022- yilning yanvar-martida 59,0 %).

YAHMning o'tgan yilga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining ko'payishi bilan izohlanadi.

69,9 %

2021 - Y.

59,0 %


2022- Y.

63,8 %

2023- Y.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmga nisbatan % da)



2023- yilning yanvar-martida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Andijon viloyati	33,3	98,4	65,2	72,2
<i>shaharlar:</i>				
Andijon sh.	30,1	97,7	65,9	37,6
Xonobod sh.	55,6	100,0	70,7	88,6
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko‘l	80,7	100,0	72,0	76,2
Andijon	83,7	95,1	69,7	70,2
Baliqchi	84,2	100,0	65,7	63,1
Bo‘ston	56,1	100,0	61,2	84,6
Buloqbooshi	100,0	100,0	56,2	97,7
Jalaquduq	67,1	97,9	70,5	74,9
Izboskan	96,7	100,0	70,0	81,9
Ulug‘nor	65,2	99,2	61,9	88,1
Qo‘rg‘ontepa	41,9	100,0	52,5	67,4
Asaka	3,2	100,0	62,2	20,1
Marhamat	37,3	100,0	73,7	50,3
Shahrixon	87,0	100,0	55,2	70,1
Paxtaobod	48,4	100,0	56,7	81,8
Xo‘jaobod	57,3	100,0	73,6	75,3

Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi eng ko‘p:

Sanoatda-

Buloqbooshi (100,0 %),
Shahrixon (87,0 %),
Oltinko‘l (80,7 %),
Andijon (83,7 %),
Ulug‘nor (65,2 %),
Bo‘ston (56,1 %),
Baliqchi (84,2 %)
tumanlarida


Qurilishda-

Buloqbooshi (100,0 %),
Shahrixon (100,0 %),
Bo‘ston (100,0 %)
Xo‘jaobod (100,0 %)
Baliqchi (100,0 %),
Izboskan (100,0 %)
Qo‘rg‘ontepa (100,0 %)
tumanlarida


Xizmatlarda-

Xo‘jaobod (73,6 %),
Andijon (69,7 %),
Marhamat (73,7 %),
Oltinko‘l (72,0 %),
Xonobod.sh (70,7 %),
Jalaquduq (70,5 %)
Baliqchi (65,7 %)
tumanlarida

2023- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 99,2 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 35,6 foizini tashkil etdi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da




2023- yil yanvar-mart oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buloqboshi tumanida – 100,0 %, Ulug'nor tumanida – 100,0 %, Marhamat tumanida – 94,7 %, Andijon tumanida – 85,2 %, Paxtaobod tumanida – 83,3 %, Jalaquduq tumanida – 79,9 %, Shahrixon tumanida – 79,1 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Baliqchi tumanida – 0,8 % ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 97,7 million AQSh dollarini yoki umumiy import hajmining 10,3 foizini tashkil etdi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2023- yil yanvar-mart oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida – 100 %, Jalaquduq tumanida – 100 %, Izboskan tumanida – 100 %, Ulug'nor tumanida – 100 %, Shahrixon tumanida – 97,9 %, Paxtaobod tumanida – 97,0 % va Andijon tumanida 78,4 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Marhamat tumanida – 0,4 % ni tashkil etdi.




2023- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 468,8 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2023- yilning yanvar-martida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, (mlrd soʻm)




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (514,1 mlrd soʻm), Baliqchi tumani (480,9 mlrd soʻm), Shahrixon tumani (424,1 mlrd soʻm), Xonobod shahri (344,8 mlrd soʻm) va Xoʻjaobod tumani (273,2 mlrd soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keladi. Boʻston tumanida (61,1 mlrd soʻm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past boʻlib qolmoqda.



2023- yil yanvar- mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 33,3 foizni tashkil etdi.



2023- yil yanvar-mart holatiga tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Buloqbooshi (100,0 %), Izboskan (96,7 %), Shahrixon (87,0 %), Baliqchi (84,2 %) Andijon (83,7 %), Oltinko'1 (80,7 %) va Jalaquduq (67,1 %) tumanlari tashkil etdi. Asaka tumanida (3,2 %) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2023- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 3 778,8 mlrd so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 92,2 foizini tashkil etdi. O‘shish sur‘ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 101,5 foizni tashkil qildi.



2023- yilning yanvar-martida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘shish sur‘ati




Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (1 175,4 mlrd so‘m), Shahrixon tumani (444,9 mlrd so‘m), Asaka tumani (257,7 mlrd so‘m) va Qo‘rg‘ontepa tumani (241,9 mlrd so‘m) hissasiga to‘g‘ri keladi.



2023- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 1 196,3 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 98,4 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 100,9 foizni tashkil qildi.




2023- yilning yanvar-martida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (425,7 mlrd so'm), Andijon tumani (148,4 mlrd so'm), Shahrixon tumani (105,9 mlrd so'm), Marhamat (62,1 mlrd so'm) hamda Bo'ston tumanlarida (52,6 mlrd so'm) qayd etildi.


2023- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 056,2 mlrd soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 65,2 foizini tashkil qildi. 2022- yilning yanvar-martiga nisbatan 104,2 foizga oʻsdi.



2023- yilning yanvar-martida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʼati




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Andijon shahri (1 198,3 mlrd soʻm), Andijon tumani (193,2 mlrd soʻm), Asaka tumani (191,6 mlrd soʻm), Baliqchi (159,7 mlrd soʻm) va Izboskan (152,0 mlrd soʻm) tumani hissasiga toʻgʻri keladi.




2023- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,0 foizni tashkil etdi. 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘shish sur‘ati 102,7 foizni tashkil qildi.


2023- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 66,1 foizni tashkil etgan bo‘lib, 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘shish sur‘ati 102,5 foizni tashkil qildi.



2023- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,2 foizni tashkil etib, bu esa 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 102,4 foizga ko‘payishiga olib keldi.



2023- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 93,5 foizni tashkil etib, 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 102,8 foizga ko‘payish kuzatildi.



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari (tadbirkorlik sub'ektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

Tadbirkorlik sub'ektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Chakana savdo bu – oxirgi foydalanuvchilarga tovarlar va xizmatlar sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat.

Ulgurji savdo bu – katta miqdordagi tovarlarni sotishni o'z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat.

Kichik va o'rta biznes - mustaqil mulk egaligiga, xo'jalik faoliyatini mustaqil tashkil etishga asoslangan va o'z tarmog'ida hukmron mavqe tutmaydigan biznes. Turli mamlakatlarda kichik va o'rta biznes sub'yektlari maqomini belgilab beruvchi mezonlar sifatida korxonada band bo'lgan ishlovchilar soni, korxonaning tovar aylanmasi, aktivlar, kapitallar, foyda miqdori va boshqa ko'rsatkiclardan foydalaniladi. O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sub'ektlarini aniqlashda korxonada ishlovchilar soni mezon qilib olingan.